

# TARIXIY MATERIALLARDAN INTEGRATIV ASOSDA FOYDALANISH ORQALI O'QUVCHILARDA MUSTAQIL FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH

**Yursinboyev Jahongir Mehrojidin o'g'li**

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti talabasi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada umumta`lim maktablarida boshlang`ich sinf o`quvchilaridan boshlab o`quv jarayonlarida tarixiy materiallardan samarali foydalanish orqali mustaqil fikrlashni rivojlantirishning shakllari, usul va vositalari bo`yicha ma`lumotlar keltirilgan hamda bu bo`yicha ilmiy farazlar taqdim qilingan.

**Kalit so`zlar:** mustaqil fikrlash, tarixiy meros, induktiv, deduktiv, tarixiy ong, tarixiy dalil, manbalar, tarixiy xotira, uzviylik, metodlar, tarixiy fikrlash, ko`rgazmalilik, integratsiya, o`zlikni anglash

O`quvchilarini komil inson qilib tarbiyalashda matematika fanining ham o`rni beqiyos. Matematika darslarida tarixiy materialarda foydalanish orqali o`quvchida kichik yoshdan tarixiy ongini shakllantirishimiz va rivojlantirishimiz mumkin bo`ladi. Chunki matematika darslarida tarixiy materiallaridan foydalangan holda dasr o`tish o`quvchilar bilish faoliyatining barsa bosqichlarida bilimlari qiziqshlarini kuchaytiradi. O`tmish tariximizda buyuk mutafakkir olimlar juda katta ilmiy didaktik meros qoldirgan bo`lib, bu o`quvchining tarixiy bilimlarga xos kompetentligini shakllanishiga o`zining katta ta'sirini ko`rsatadi. Darhaqiqat, tarix xalqning haqiqiy tarbiyachisidir, ulug` ajdodlarimizning merosi va Vatan oldidagi jasorati boladagi tarixiy xotiralarini jonlantiradi, unda yangicha dunyoqarashni shakllantiradi, tarixiy-ahloqiy tarbiya va saboq olishning manbaiga aylanadi. Markaziy Osiyo tarixida, o`zlarining siyosiy ong, ahloqiy jasoratni, diniyo dunyoqarash va qomusiy bilimlarni mujassamlashtirigan buyuk siymolarning boy ilmiy merosi bizni tarixiy tafakkurimzni yanada kengaytiradi.

Buyuk mutafakkurlarimizni o`qitish bo`yicha haqiqy asoschilar desak mubolag`a bo`lmaydi, Al-Xorazmiyning uzlucksiz ta`lim orqali shaxs kamol topishi mumkinligini asoslagan nazariyasiga ko`ra, induktiv va deduktiv tafakkurdagi individuallik va integratsiya birligi yanada muayyanlashtirildi.

Al-Farobiy o`qitish usullarining tasnifini ishlab chiqdi, ularni amaliy va nazariy metodlarga ajratdi va shu tariqa o`qitishning amaliy yo`nalishi hamda kishilaning kundalik faoliyati bilan bog`liq g`oyalarni ilgari surdi. Al-Farobiy bilish faoliyatini tashkil etish masalalariga oid mufassal tavsiyalarini taqdim qildi. Uning fikricha, yaxshi nazariyotchi bo`lish uchun nazariya qaysi fanga taalluqli bo`lsada, quyidagi 3 ta shartga rioya qilishi shart:

mazkur fan asosidagi barcha tamoyillarni to`liq bilish;

mana shu tamoyillardan mazkur fanga oid ma`lumotlardan tegishli xulosalar chiqarish4

noto`g`ri nazariyani rad eta bilish, haqiqatni yolg`ondan farqlash, xatoni to`g`rilash uchun boshqa mualliflarning fikrlarini tahlil qila bilish.

Boshlang`ich sinf matematika fanini o`qitish jarayonida tarixiy materiallardan foydalanishni tashkil etish, o`zining tizimiga asosan ikki maqsadni parallel ravishda amalga oshiradi. Birinchidan, matematik qonuniyat, dalil, formulalarni na faqat matematikada emas, balki boshqa fanlarda ham undan foydalanish uslublari ko`rsatiladi. Buning natijasi o`laroq, shu sohada o`quvchilar bilimi chuqurlashadi. Shu sababli matematikani boshlang`ich sinf o`quvchilariga tarixiy materiallar bilan qo`sib o`qitishda o`zini pedagogik va psixologik jihatlari bilan farq qilishi bilan birga o`qitish jarayonida ishlatalidigan metodlarni o`zaro uzviylik didaktik ketma-ketligi bilan ham ajratish lozim bo`ladi. Ma`lumki, pedagogikada o`qitish metodlari, o`rganish metodlari bilan birgalikda dars berish metodlari ham mavjud. Ayniqsa, dars berish metodlari o`zining tuzilish jihatidan o`qitish va o`rganish metodlarining samarali ketma-ketligining yig`indisi sifatida yuzaga kelishi sababli u har bir o`quvchida alohida shakllanadi. Zero, boshlang`ich sinflarda tarixiy materiallarni o`qitish jarayonida metodlar majmuasidan to`g`ri foydalanish o`quvchilarini yaxshi o`zlashtirishiga muhim omil bo`la oladi.

Tarixiy materiallarni o'qitish jarayoni, muammoli metod va tushuntirish metodlari orasida bog'lanish bo'lib, ular o'zining tuzilishiga ko'ra, monologik, dialogik, ko'rgazmalilik, evristik, izlanuvchanlik, algortmik, dasturlashtirish kabi metodlar bilan bog'lanadi. Dars berish jarayonida shu turdag'i metodlarni qo'llash jarayoni o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, bu xususiyat berilayotgan o'quv materialining mazmunini tuzilishiga bog'liq ravishda yuzaga keladi. Masalan, o'quvchilarni "vaqt", "taqvim", "ulush" kabi o'lchov birliklari bilan tanishtirish darslarida tarixiy materiallarni o'rgatish jarayoni boshqa darslarga nisbatan bir oz farq qiladi. Darslarning turllaridan tarixiy materiallarga oid tushunchalar tizimini yanada kengaytirish imkoniyati ortadi. O'qitish metodida esa, tarixiy materiallardan ko'rgazmalilikka tayangan holda o'qitishni tashkil qilish o'quvchilarning tarixiy ongini shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, tarixiy materiallarning o'zini o'qitishda o'quvchilarni mavhum fikrlashining o'sishiga yordam berish bilan birga qo'llaniladigan metodlar, qoidalar, omillar, materiallarning o'zaro bag'lanishi, bir-birini to'ldirishini ta'minlash va o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratiladi. O'quvchida iqtidorlilik ham rivojlanib, bolada matematik mantiq, ko'nikma va malakalarning ham rivojlanishiga alohida hissa qo'shadi. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" asarida "o'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi", degan muhim g'oyalari mavjud. Kichik yoshdan o'tmis tarixini bilish o'z xalqi va millatiga xos tarixiy saboqlarni bilishni va undan tegishli xulosalar chiqarishni o'rgatadi. Asrlar davomida ajdodlarimizning aqlu-zakovati bilan yuzaga kelgan milliy qadriyatlar inson shaxsining har tomonlama kamol topishida yetakchi omil bo'lib kelgan. Shu sababli bugungi kunda yosh avlodning ongini boyitish katta ahamiyatga ega. O'sib kelayotgan yosh avlodni ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan ilmiy boyliklar bilan tanishtirish ularning dunyoqarashini yanada kengaytiradi, bilim darajasini yuksaltiradi. O'tmisda goh ayananchli, goh hayajonli kechgan tarixini ajdodlarimiz merosi orqali tanishishi bolada milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'ularini shakllanishiga yordam beradi.

Buyuk ajdodlarimizning matematika sohasidagi ishlari haqida matematika tarixiga oid manbalarda ko'plab ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Keyingi yillarda A.Axmedov, A.P.Yushkevich, G.N.Qori-Niyoziy, S.X.Sirojiddinov kabi olimlarimiz ishlarida shu mutafakkirlarimiz haqidagi, ularning matematika fanining rivojiga qo'shgan hissasi haqida ko'plab ma'lumotlar keltiriladi. O'qituvchi darsda yoki darsdan tashqari mashg'ulotlarda O'rta Osiyo olimlarining ishlariga doir tarixiy materiallari haqida ma'lumot berib borsa, o'quvchilarning matematikaga bo'lgan qiziqishi ortadi, tarixiy ongi shakllanadi.

O'quv mashg'ulotlarda, sinfdan tashqari ishlarda, to'garaklarda o'qituvchi o'quvchilarni o'tmisdag'i va hozirgi davrdagi buyuk olimlarning tarjima hollari, ularning ilmiy xizmatlari bilan tanishritib borishi bolada o'z halqining tarixiga nisbatan jiddiy qarashni shakllantiradi va Vatanga bo'lgan muhabbat rivojlanadi. Masalan, buyuk o'zbek matematik olimi Al-Xorazmiy tarjima holi va uning ilmiy xizmatlari ayniqsa katta ahamiyatga ega<sup>1</sup>.

Maktabda fanlarni o'qitish metodi milliy tarbiyaning umumiyligi masalalaridan va matematika, o'qish, tarbiya kabi fanga oid, materiallarning o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda o'z vazifasini belgilab olishi kerak. Maktabda fanlarni o'qitishning eng muhim vazifasi bu fanni o'quvchilarga chuqr singdirishdir. Fanlarni metodik jihatdan to'g'ri o'qitish bilan bir qatorda mafkuraviy masalalarni hal qilishga ham katta yordam beradi.

O'quvchilarda milliy mafkura asosida tarbiya barcha darslarda tarixiy materiallarni qo'llanishda amalga oshiriladi. O'qituvchi fanlarning tarixi haqidagi ma'lumotlardan foydalangan holda dasturni o'quvchi tomonidan o'zlashtirilishini osonlashtirish imkoniga ega bo'ladi, buning natijasida eng qiyin bo'lgan nazariya ham bola tomonidan oson o'zlashtiriladi. O'qituvchining eng ma'suliyatlari vazifasi o'quvchilar bilan muomala qilishda xulq-atvor to'g'risida chuqr o'ylab ko'rish, o'qitish uslubi, o'quvchilardan talab qilish tizimi, shundan kelib chiqadigan tarbiyaviy ta'sir jamiyat manfaatiga muvofiq kelishi lozim.

Yangi O'zbekiston taraqqiyotini yanada oshirish yosh avlod oldidagi katta vazifalardan biridir. Milliy mafkuraning barcha harakatlantiruvchi kuchlari uning ravnaqi, xalqining farovonligi va tarixiy madaniyatini tiklashga qaratish yoshlari zimmasidadir. Buning uchun bo'lajak l o'qituvchilar ham qat'iyatlari, to'siqlardan qo'rqmaydigan, aksincha, ularga qarshi doim optimal qarorlar qabul qila olish kompetentligiga ega kreativ bilimdon bo'lishlari talab etiladi.

<sup>1</sup> Таджиева З.Г., Жумаев М.Э. ва б. Бошлангич синф математика таълими самарадорлигини оширишда тарихий материаллардан фойдаланиш / ўкув кўлланма. -Т.: 2007.

Boladagi g‘oyaviy dunyoqarash kichik yoshdanoq hamma fanlarni o‘rganish orqali shakllanib boradi. Fan asoslarini o‘rganish albatta, tabiat va jamiyat integratsiyasi asosidagi umumiylasavvurlarning shakllanishi uchun manba bo‘lib xizmat qiladi. Bu ma’lumotlar asosida chiqariladigan xulosalar dunyoqarash elementlari vazifasini bajaradi.

Olib borilgan tahlillar natijasida ma’lum bo‘ldiki, ilmiy dunyoqarashni shaklantirish mактабгача tarbiya, maktabda boshlanishi va rivojlantirilishi lozim. Har bir bola eng kichik yoshdan boshlab, yoshiga mos, yaxlitlangan dunyoqarashga ega bo‘lishi va rivojlanib borishi o‘qituvchining o‘quvchi shaxsiy traektoriyasini belgilab berishiga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi. Buning uchun boshlang‘ich sinflarda tarixiy materiallarni o‘rgatish jarayonida mustahkam zamin tayyorlanadi. Barcha fanlar o‘qitish va o‘rgatish jarayonlarida o‘qituvchilar o‘quv jarayoniga tarbiyaviy yo‘nalishni singdirishi, ayniqsa, ilmiy-g‘oyaviy imkoniyatini ochish vazifasi turadi. Bolaning ma’naviy ehtiyojlaridan biri bilishga intilishdir, bolalarda bu ehtiyoj atrofdagi narsa-buyumlar, umuman, atrofda sodir bo‘layotgan voqealarni kuzatishda qoplanadi. Darsning g‘oyaviy saviyasi o‘quvchiga taqdim qilinadigan bilimlar hozirgi zamon dalillariga muvofiq va milliy xalq ma’rifatparvarligi nuqtai nazaridan bayon qilish, shu bilimlar orqali o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish tushuniladi. Dastlab, tarixiy materiallar tarkibida mavjud bo‘lgan hikoya, afsona, ertak va masallardan o‘rinli foydalanish talab etiladi. Bunga shu yoshdagi bolaning uyda va maktabda shug‘ullanadigan asosiy faoliyati bo‘lgan o‘qish, muomala, o‘yin, mehnat yordam beradi. Bola yetti yoshga to‘lguncha ma’lum bir ob‘yekt va hodisalar haqida faqat reproduktiv va idrok etib bo‘lmaydigan timsollarni payqashi mumkin. O‘qishga kelishi bilan bola shaxsiga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadigan tengdoshlari, o‘qituvchilar, maktab o‘quv qo‘llanmalari orqali katta yo‘l ochiladi. O‘qish hisobigan ommaviy axborot vositalari orqali undagi aloqalar kengaya boradi, unga muayyan darajada ta’sir ko‘rsatadigan axborot oqimi kengayadi. Bola maktabga borishi munosabati bilan oilaning tarbiyaviy yo‘nalishiga maktab ham katta yordam beruvchi sub‘yektga aylanadi. Bolaning vaqt oiladan tashqari tengqurlari davrasida, o‘quv mashg‘ulotlarida, o‘qituvchilar bilan turli vaziyatlarda muomala –munosabat holatida kechadi. Boshlang‘ich sinflarda bolaga oila bilan maktabning ta’siri deyarli bir xil bo‘ladi, shu sababli bu har ikki sub‘yekt ham o‘z faoliyati davomida tarixiy materiallardan foydalanish orqali ta’lim va tarbiyaviy tizimni yanada mustahkmlasa, bolaning ilmiy-g‘oyaviy dunyoqarashi shakllanib boradi. Maktab o‘qituvchisi o‘z bilimi va imkoniyatlariga muvofiq o‘quvchilarga halq orasida hurmatga sazovor bo‘lgan olimlar, mutafakkirlar, ma’rifatparvarlarning faoliyatini, ularning fanlar tarixiga qo‘sghan hissasi va g‘oyalari bilan tanishtirib borishi o‘quvchilarning fanga qiziqishini ortishiga hamda Vatanparvarlik tuyg‘usini shakllanishiga olib keladi. O‘rta Osiyoda yashab ijod qilgan Farobi, Xorazmiy, Ibn Sino, Beruniy, Hakim va Sobir Termiziylar, Rudakiy kabi mutafakkirlar o‘zlarining butun ijodiy faoliyatlarini Vatanda ilm-ma’rifatni rivojlantirishga bag‘ishlagan. Ularning boy merosini bolaga kichik yoshdanoq tanishtirish bolaning milliy o‘z-o‘zni anglashiga yordam beradi. Milliy o‘z-o‘zini anglashning rivojlanishi bilan milliy iftixon, milliy his tuyg‘ular namoyon bo‘ladi. O‘zlikni anglash millatning tarixi, madaniyati, urf-odati va an'analarini har taraflama chuqur bilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘zbek millatining tarixiy tarkib topshii, millat ma’naviyati, til, fan, din, ma’naviyat, turmush tarzi, tarixiy obidalari milliy o‘zlikni yanada rivojlantirishga yordam beradi. Shu sababli maktabda fanlarni o‘qitish jarayonlarida milliy o‘zlikni anglatuvchi asosiy yo‘nalishlarga to‘htalib o‘tish lozim. Xalq og‘zaki ijodidagi muayyan fanlarga oid tushunchalarni tarbiyalovchi omillar, mutafakkir olimlar hayot tarzining tarixiy ongni shakllanishiga ta’siri, jumladan, tarixiy lavhalar, ularning fan ravnaqiga qo‘sghan hissasi, qadimiy obidalar orqali tarixiy tushunchalarni yanada boyitish va muayyan fanlarni o‘qitish tizimiga singdirish, madrasalar, minora va tarixiy obidalar qurilishining turli shakllardan iboratligi va o‘ziga xosligiga asoslanishi o‘quvchida tarixiy ongning shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q". "Sharq" T.: 1998-yil. 16 bet
2. Jo‘raev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. – T.: Ma’naviyat, 2008. – 24 b.
3. Zayniddinova M. O‘quvchilarning mustaqil fikrlash faoliyatlarini rivojlantirish omillari // Xalq ta’limi. – 2004. - №1. – B. 132-135.
4. Musaev J. Mustaqil fikrlash salohiyatini rivojlantirish mashqlari. // Xalq ta’limi– 2007. - № 1. – B. 7-13.

5. Tadjieva Z.G., Jumaev M.E. va b. Boshlang'ich sinf matematika ta'limi samaradorligini oshirishda tarixiy materiallardan foydalanish / o'quv qo'llanma. -T.: 2007.

